1. Konstitutsiyamizning qaysi bobining moddalarida mulk huquqining mazmuni e'tirof etilishi bilan bir qatorda, mulkdan foydalanish huquqiga ega bo`lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo`jalik va ishlab chiqarish jarayonida atrof muhitga ziyon yetkazmasligi, ya'ni ularning ekologik majburiyatlari mustahkamlanadi?
A) Jamiyat va shaxs
B) Jamiyatning iqtisodiy negizlari
C) Fuqarolaring burchlari
D) O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi

*2. «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniy yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi» deb konstitutsiya ning nechanchi moddasida belgilab qo`yilgan?*
A) 55-modda
B) 53-modda
C) 43-modda
D) 54-modda

3. Moliya huquqi jamoa subyektlarining eng ko`p sonli guruhini qaysi hokimiyat davlat organlari tashkil etadi?
A) qonun chiqaruvchi
B) ijroiya
C) sud hokimiyati
D) to`g'ri javob yo`q

4. Sizlar uchun (bu gap erkaklarga aytilyapti) onalaringiz, qizlaringiz, opa-singillaringiz, ammalaringiz, xolalaringiz, aka-ukalaringizning qizlari, opa-singillaringizning qizlari, emizgan onalaringiz, emishgan opasingillaringiz, qaynonalaringiz, nikohingizda bo`lgan xotinlaringizning tarbiyangizda bo`lgan qizlari – mana shu sanab o`tilgan ayollarga uylanish harom qilindi.
Yuqoridagi ma'lumotlar qaysi kitobda o`z aksini topgan?
A. Avestoda
B. Qur'oni Karimda
C. Konstitutsiyamizda
D. Oila kodeksida

5. Yosh chegarasini belgilash Jinoyat kodeksining qaysi moddasida belgilab qo`yilgan?
A) 312-modda
B) 313-modda
C) 314-modda
D) 329-modda

6. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga nimalar kiradi?

*1) urushni targ'ib qilish; 2) agressiya; 3) urushning qonun va udumlarini buzish; 4) genotsidl; 5) chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish*

A) 1,2,3,
B) 3,4,5
C) 1,2,3,4
D) 1,2,3,4,5

7. Markazlashmagan fondlar tushunchasiga berilgan ta'rifni aniqlang.

A) Respublika, viloyat, tumanlar fondlaridan iborat bo`lib, ulardan faqat shu hududlarning ehtiyojlari uchungina foydalaniladi
B) korxona va tashkilotlar pul fondlari bo`lib, ular ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy maqsadlarga ishlatiladi
C) moliyaviy mablag'larni sarflash uchun moliyalashtirish va kreditlashtirish usullari
D) barcha javoblar to`g'ri

8. «Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega» deb konstitutsiyaning nechanchi moddasida belgilab qo`yilgan?

A) 41-modda
B) 42-modda
C) 43-modda
D) 44-modda

9. Jinoyatning tashqi mohiyati nima deb ataladi?

A) obyekt
B) subyekt
C) subyektiv tomon
D) obyektiv tomon

10. Hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiste'mol qilish jinoyatining obyektiv tomoni nechta muqarrar belgidan iborat?

A) uchta
B) to`rtta
C) beshta
D) oltita

11. Nikoh shartnomasiga er va xotin quyidagi qoidalarni kiritishga haqlidir.

- I) o'zaro moddiy ta'minot berish
- II) oila xarajatlarni taqsimlash
- III) bir-birining daromadida ishtirok etish
- IV) boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish
- V) nikohdan ajralgan er va xotindan har biriga beriladigan mol-mulkni aniqlab olish
- VI) birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olish

A) I, II, III

B) II, IV, VI

C) I, III, IV, V, VI

D) I, II, III, IV, V, VI

12. .... Sog’lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.
A. mahalla
B. davlat
C. oila
D fuqarolar

13. Odam o`g’irlash jinoyatiga Jinoyat kodeksining nechanchi moddasida nazarda tutilgan hollardan tashqari barcha turdagi odam o`g‘irlashlar kiradi?
A) 240-modda
B) 242-modda
C) 244-modda
D) 245-modda

14. O`zganing elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturi yoki

ma'lumotlar bazasini o`z nomidan chiqarish yoxud qonunga xilof ravishda undan nusxa olish yoki bunday asarni tarqatish fuqarolarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining qancha miqdorida jarima solishga sabab bo`ladi?

A) bir baravaridan uch baravarigacha

B) uch baravaridan besh baravarigacha

C) ikki baravaridan besh baravarigacha

D) besh baravaridan yetti baravarigacha

15. «Dunyoning madaniy va tabiiy merosini himoya qilish to`g'risida»gi Konvensiya qachon imzolangan?

A) 1966-yil

B) 1972-yil

C) 1992-yil

D) 1998-yil

16. Kimlar talon-taroj qilishning subyekti bo`lishi mumkin?

A) 16 yoshga to`lgan shaxslar

B) muomalaga layoqatli shaxslar

C) qonunda ko`rsatilgan yoshga yetgan shaxslar

D) B va C javoblar to`g'ri

17. Quyidagilardan jamoa subyektlariga kiradiganlarni aniqlang.

A) davlat moliyaviy faoliyati sohasida tegishli yuridik majburiyatlar va huquqlar majmuyi olish qobiliyatiga ega bo`lgan hamda ularning amalga oshirilishi uchun mas'ul hisoblangan odamlarning tashkiliy va alohida ajratilgan turli xil birikmalari

B) O`zbekiston Respublikasi va uning ma'muriy hududiy birliklari

C) O`zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo`lmagan shaxslar va chet el fuqarolari

D) faqat O`zbekiston Respublikasi fuqarolari

18. O`tgan asrning o`rtalarida atmosfera tarkibida $CO_2$ ning miqdori necha foiz bo`lgan?

A) 0,02 %

B) 0,03%

C) 3 %

D) 2 %

19. ……pora beruvchi manfaatlaridan muayyan harakatlar sodir etish uchun berilgan g'ayriqonuniy mukofot bo`lib hisoblanadi.

A) korrpusiya
B) pora
C) pul
D) moddiy qimmatlik
20. Moliya yili qaysi vaqtni o`z ichiga oladi?
A) 1-martdan 31-dekabrgacha
B) 1-yanvardan 31-dekabrgacha
C) 1-yanvardan 31-yanvargacha
D) 1-dekabrdan 31-dekabrgacha
21. «Ozon qatlamini saqlash to`g‘risida»gi Konvensiyasi qachon imzolangan?
A) 1992 -yil, 9-may
B) 1994-yil, 17-iyun
C) 1985-yil, 22-mart
D) 1973-yil, 3-mart
22. Qaysi kodeksda jinoyat protsessida ishtirok etuvchilarning huquq va majburiyatlari alohida qayd etilgan?
A) Jinoyat kodeksi
B) Jinoyat protsessual kodeksi
C) Ma’muriy javobgarlik to g‘risidagi kodeks
D) Fuqarolik kodeksi
23. Davlat daromadlari va ular o`rtasida yuzaga keladigan munosabatlar qanday hujjatlar bilan tartibga solinadi?
I. *O`zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi*
*II. O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi*
*III. qonunosti hujjatlari*
*IV. mahalliy odat va an’analar*
*V. qonun hujjatlari me’yorlari*
A) I,II,IV,V
B) II,III,IV,V
C) I,II,III,V
D) I,II,III,IV,V
24. Tovlamachilik nimaga qarshi g’arazli jinoyatlardan biri hisoblanadi?
A) davlatga
B) shaxslarga
C) oilaga, yoshlarga
D) mulkka
25. Yuridik va jismoniy shaxslarning axborot tizimlarini xalqaro axborot tarmoqlariga qonunga xilof ravishda ulash, bu tarmoqlarga tegishli himoya choralarini ko`rmasdan ulanish, xuddi shuningdek ulardan ma’lumotlarni qonunga xilof ravishda olish mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining qancha miqdorida jarima solishga sabab bo`ladi?
A) bir baravaridan uch baravarigacha

B) uch baravaridan besh baravarigacha
C) ikki baravaridan besh baravarigacha
D) besh baravaridan yetti baravarigacha

26. O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining nechanchi moddasida belgilab qo`yilgan?
A) 127-modda
B) 159-modda
C) 123-modda
D) 245-modda

27. Nuqtalar o`rnini to`ldiring. Insonning eng katta dushmani - bu uning….
A) vijdoni
B) qanoati
C) nafsi
D) hissiyoti

28. Jinoiy-huquqiy norma bilan belgilab qo`yilgan taqiqlarni buzganlik uchun sud kimning nomidan belgilangan jinoiy jazolarni tayinlaydi?
A) jamiyat
B) jabrlanuvchi
C) davlat
D) sud organlari

29. Boshqalariga qaraganda keyinroq sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Byudjet Fransiyadagi burjua revolyutsiyasidan keyin o'rnatilgan

B) Amudaryo va Sirdaryodan Orol dengiziga har yili 56 kub.km suv quyilgan

C) axborot jamiyatda tabiiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarga nisbatan ham kuchli va sezilarli mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi.

D) byudjet atamasi Yevropa mamlakatlarida tarqaldi

30. Quyidagilarni bir-biriga to'g'ri moslashtiring.

| № | Shaxslar | | Shaxslar tomonidan aytilgan iboralar |
|---|---|---|---|
| 1. | Kubro | a | Vaqni "essiz, :qaniydi" ", "koshkiydi" lar bilan o'tkazgan kishining umri eng |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | qisqa umr ekan |
| 2. | Gyote | b | Qonun qudratli, biroq ehtiyoj yanada kuchliroq |
| 3. | Paulo Koelyo | c | Inson ixtiro qilgan vayronkor qurollar orasida so'z eng xatarli va kuchli qurolligicha qolmoqda. |
| 4. | Yusuf Xos Hojib | d | Pora o'nglanib ketgan ishlarni buzadi, bitayotgan ishlarni barbod qiladi. |

A) 1c, 2a, 3b, 4d

B) 1d, 2a, 3c, 4b

C) 1d, 2b, 3a, 4c

D) 1a, 2b, 3c, 4d

31. Zo`rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish jinoyati qachondan e'tiboran jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi?
A) odam shaxsiy erkinligidan mahrum qilingan paytdan e'tiboran
B) jabrlanuvchi ozodlikdan mahrum qilingan paytdan
C) odam o`g'irlashda tayyorgarlik ko`rish paytidan
D) odam o`g'irlash uchun qaror qabul qilingan paytidan

32. Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epedimiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish jinoyatinig obyekti nimalarda ifodalanadi?
A) insonlarning vafot etishiga
B) o`rtacha yoki og'ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo`lgan texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi, mehnatni muhofaza qiluvchi boshqa qoidalarning buzilishida
C) yengil tan jarohati yetkazilishiga sabab bo`lgan texnika xavfsziligi, sanoat sanitariyasi, mehnatni mufohaza qiluvchi boshqa qoidalarning buzilishida

D) odamlarning ommaviy kasallanishiga yoki zaharlanishiga olib kelgan sanitariyaga va epedemiyaga oid qonun hujjatlarini buzishda

33. Davlat daromadlari hududiylik xususiyatiga ko`ra, qanday turlarga bo`linadi?
A) markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan
B) majburiy va ixtiyoriy
C) Respublika va mahalliy
D) soliq to`lovlari va soliqsiz

34. Tashqi muhitga chiqarilgan atmosfera tarkibidagi $CO_2$ ning miqdorini Germaniya necha foizini chiqarib tashlamoqda?
A) 31% ini
B) 18 % ini
C) 7 % ini
D) 5,4% ini

35. Jinoyat protsessi qaysi bosqichlardan iborat?
*a) jinoyat protsessining umumiy vazifalaridan kelib chiqadigan o'zining alohida vazifalari bilan,*
*b) ishtirokchilarning alohida tarkibi bilan;*
*d) bu ishtirokchilarning o'ziga xos harakatlari va huquqiy munosabatlari bilan;*
*e) bu faoliyatga yakun yasaladigan o'ziga xos hujjatlar bilan*
A) a, d
B) b, e
C) a, b, d
D) a, b, d, e

36. "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega". Ushbu normalar Konstitutsiyamizning qaysi moddasida o`z aksini topgan?
A) 40-modda
B) 42-modda
C) 44-modda
D) 34-modda

37. Insonning qadr-qimmati deganda nima tushuniladi?
A) unga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo`ravonlik ishlatilishini
B) insonning ichki axloqiy qadr-qimmati, halolligi, oliyjanobligi, vijdoni, insonning ma'naviy va ijtimoiy fazilatlarini belgilovchi

tushuncha
C) dunyoqarashining darajasi, aql-zakovati, turmush tarzi kabi insonning obyektiv jihatlarini tavsiflovchi ijobiy sifatlar yig'indisi
D) shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash
38. Umumiy mulk hisoblanadigan mulklar qaysi hujjatda belgilab qo`yilgan bo`lsa, shaxsiy mulk hisoblanishi mumkin?
A. Oila kodeksida
B. nikoh shartnomasida
C. Konstitutsiyada
D. oila shartnomasida
39. Mamlakatimizda nechanchi yil "Oila yili deb e'lon qilingan?
A. 1998-yil
B. 2001-yil
C. 2012-yil
D. 2007-yil
40. Er va xotinning umumiy mol-mulki hisobidan o`rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo`yilgan omonatlar kimlarga tegishli hisoblanadi?
A) er va xotinning o`rtasida taqsimlanadi
B) o`sha bolalarga
C) davlatga tegishli hisoblanadi
D) sud tomonidan hal qilinadi
41. Fuqarolarning murojaatlari to`g'risidagi qonun hujjatlarini buzish nimada ifodalanadi?
A) jinoyat shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to`g'risidagi ma'lumotlami uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig'ish yoki tarqatish
B) jinoyat yashovchilarning erkiga qarshi zo`rlik ishiatib, g'ayriqonuniy ravishda turar joyga bostirib kirish
C) qonunni buzishga qaratilgan har xil harakatlar bo`lib, fuqarolar, jamiyat va davlatning qonun bilan rauhofaza etiladigan huquqlariga jiddiy zarar yetkazish
D) jinoyat shaxslarning pochta-telegraf xabarlari yoki telefonda so`zlashuvning mazmuni va hokazolar xabar qilinayotgan ma'lumotlami shu axborotlar egasining roziligisiz oshkor etilishi
42. Bosqinchilikning obyekti nima?
A) o`zgalar mulki
B) fuqarolarning hayoti
C) fuqarolarning sog'ligi
D) barcha javoblar to`g'ri

43. Ijtimoiy -hududiy tuzilmalarga qanday subyektlar kiradi?
A) davlat moliyaviy faoliyati sohasida tegishli yuridik majburiyatlar va huquqlar majmuyi olish qobiliyatiga ega bo`lgan hamda ularning amalga oshirilishi uchun mas'ul hisoblangan odamlarning tashkiliy va alohida ajratilgan turli xil birikmalari
B) O`zbekiston Respublikasi va uning ma'muriy hududiy birliklari
C) O`zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo`lmagan shaxslar va chet el fuqarolari
D) faqat O`zbekiston Respublikasi fuqarolari
44. Nikoh asosida qanday munosabatlar kelib chiqadi?
A. shaxsiy va mulkiy
B. shaxsiy va nomulkiy
C. shaxsiy nomulkiy
D. er-xotinlik munosabatlar
45. Quyidagilardan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarni aniqlang.




A) I, II B) II, III
C) I, III C) I, II, III

*46. «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi»* deb konstitutsiyaning nechanchi moddasida belgilab qo`yilgan?
A) 16-modda
B) 27-modda
C) 35-modda
D) 33-modda
47. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo`lishda qaysi biri ko`proq huquqlarga ega hisoblanadi?
A) erkak
B) ayol
C) bolalar kimda qolsa o`sha taraf

D) teng huquqlarga ega bo`ladilar

*48. «Barcha odamlar qonun oldida teng va hech qanday kamsitishlarsiz qonun bilan teng himoyalanish huquqiga egadirlar» deb qaysi hujjatda belgilab qo`yilgan?*

A) O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi
B) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g‘risidagi xalqaro paktning 26-moddasi
C) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasi
D) O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 26-moddasi

49. Mamlakat xarajatlarini qoplanishining asosiy manbayini aniqlang.
A) ixtiyoriy to`lovlar
B) majburiy to`lovlar
C) markazlashtirilgan daromadlar
D) markazlashtirilmagan daromadlar

50. «Yo`qolish arafasidagi yovvoyi flora va fauna turlari bilan xalqaro savdo-sotiq qilish to`g‘risida» Konvensiya qachon qabul qilingan?
A) 1992-yil, 9-may
B) 1994-yil, 17-iyun
C) 1985-yil, 22-mart
D) 1973-yil, 3-mart

51. Moddiy yordamga muhtoj bo`lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun undirilishi lozim bo`lgan mablag‘ jami ikki oy mobaynida to`lanmagan taqdirda nima deb hisoblanadi?
A) jinoyat tugallangan
B) jinoyat tugallanmagan
C) jinoyat boshlangan
D) jinoyat davom etayotgan

52. Nikoh yoshi qayerda 16 yoshdan 21 yoshgacha belgilangan?
A. Fransiyada
B. Braziliyada
C. Angliyada
D. AQSH da

53. Quyidagilardan qaysi biri jinoyatlarning istisno qiluvchi holatlar ro`yhatiga kirmaydi?
A) oxirgi zarurat
B) buyruq yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarmaslik
C) kasb yoki xo`jalik faoliyatiga bog’liq bo`lgan asosli tavakkalchilik
D) zaruriy mudofaa

54. O`zbekiston Respublikasi hududida qaysi kodeksida

nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar amal qiladi?
A) Fuqarolik kodeksi
B) Ma'muriy kodeksi
C) Moliya kodeksi
D) Soliq kodeksi
55. Jinoyat ishini qaysi sudda ko`rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida yoxud nazorat tartibida ko`rishda ishtirok eta olmaydi?
A) birinchi instansiya
B) apellatsiya
C) kassatsiya
D) taftish tartibi
56. Hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiste'mol qilish jinoyatining obyektini aniqlang.
A) har qanday moddiy qimmatliklar, pul, xorijiy va valyuta, qimmatbaho buyumlar,qimmatli qog'ozlar
B) oziq-ovqat yoki sanoat mahsulotlari va boshqalar
C) A va B javolar
D) davlat hokimiyati, boshqaruv va mahalliy o`zini o`zi boshqarish organlarining normal faoliyat ko`rsatishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari
*57. … … ikki yoki undan ortiq shaxslarning hokimiyatni bosib olish yoki konstitutsiyaviy tuzumni ag`darib tashlashga qaratilganjinoiy harakatni sodir etish uchun o`z kuchlarini birlashtirishga kelishishidir.*
A) huquqqa xiloflik
B) g'arazgo`ylik
C) fitna
D) isyon
58. Zardushtiylik huquqiga ko`ra nikoh kimlar tomonidan tasdiqlanadi?
A. nikohlanuvchi shaxslar tomonidan
B. nikohlanuvchi shaxslarning guvohlari tomonidan
C. nikohlanuvchi shaxslarning ota-onalari va vasiylari tomonidan
D. nikoh tuzuvchi er tomonidan
59. Mamlakatlarning ichki boshqaruvi va mustaqilligi, suverenetiteti uning nimasi vositasida qonunlashtiriladi?
A. qonunlari
B. davlat organlari
C. davlat apparati
D. Konstitutsiyasi

60. Quyidagilarni bir-biriga to'g'ri moslashtiring.

| № | Shaxslar | | Iboralar |
|---|---|---|---|
| 1 | Mahmud Zamaxshariy | a | G'ofil odam ko'z yumib g'aflat uyqusiga botadi, ey, irodali mard, g'ofil bo'lma, hushyor bo'l. |
| 2 | Fitrat | b | Jahling chiqqanida so'zlaringga diqqat qil… Kattalardan oldin yurma. Birov gapirayotganda oraga gap suqma. |
| 3 | Yusuf Xos Hojib | c | Pora faqat nohaqlig-u zolimlarga yordam beruvchidir. |
| 4 | Luqmoni Hakim | d | Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi. |

A) 1a, 2c, 3b, 4d

B) 1c, 2d, 3a, 4b

C) 1a, 2d, 3c, 4b

D) 1d, 2c, 3b, 4a